

## O'QITUVCHI KASBIY KOMPETENTLIGI ME'ZONLARINI VA MALAKAVIY AMALIYOTDA SHAKLLANISH BOSQICHLARI

**Sheraliyeva Odinaxon Maxmudjon qizi**

*Pedagogika-psixologiya yo;nalishi 22-24 guruh talabasi*

*"University of Business and Science" nodavlat oliy ta'lim muassasasi*

**Ilmiy rahbar: Bobayeva Ziyodaxon Maxamadjon qizi**

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi*

*"University of Business and Science" nodavlat oliy ta'lim muassasasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlikning shakllanishi bosqichlari haqida yoritilgan. Maqolaning tadqiqot natijasida biz shuni aniqladikki, ushbu jarayonda uch bosqich mavjud va ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi haqidabilib oldik va shular haqida yoritib o'tdik.

**Kalit so'zlar:** pedagog, mashg'ulot, amaliyot, pedagogik kompetentlik, kasbiy kompetentlik, identifikatsiya.

**Annotation:** this article covers the stages of the formation of professional competence of future educators. As a result of the study of the article, we found out that there are three stages in this process, and we were guided by the fact that each of them has its own characteristics and covered them.

**Keywords:** educator, training, practice, pedagogical competence, professional competence, identification.

Xozirgi kunda pedagogik ta'lim nazariy bilimlarni o'zlashtirish va shunda faqatgina bilimlarga tayanishni bosh maqsad qilmaydi. Sababi, o'qituvchilarni tayyorlash masalasiga bag'ishlangan maxalliy va xorijiy ilmiy ishlarning aksaryatida o'quvchilarning nazariy va amaliy mashg'ulotlari o'rtasidagi to'siqni bartaraf etish borasida fikr yuritilmoqda. Bunda malakaviy amaliyotning o'rnini beqiyos hisoblanadi. Malaka oshirish tizimining asosiy vazifalaridan biri mutaxassislarni o'z soxasi boyicha malakasini oshirish, mukammallashtirish va ushbu sohaning organilmagan qirralarini o'rganib, tadqiq qilishdan iborat. Malaka oshirishdagi o'qituvchilar kasbiy kompetentligini tarbiyalashda o'qitishning turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish xam bunday murakkablikni engillashtirishda muxim me'zonlardan xisoblanadi. Pedagoglar kasbiy kompetentligini tarbiyalash bo'yicha olib borilgan tajriba sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning kasbiy kompetentlik muammolarini anglash va qabul qilishi malaka oshirish kurslarining birinchi mashg'ulotlaridayoq ijodga bo'lgan qiziqish va intilish, bilishga bo'lgan yuqori extiyoj, o'z kasbiy faoliyatini davom ettirishga bo'lgan yuqori motivatsiya, qiziqish, o'qituvchining o'z-



o'zini faollashtirish va o'z-o'zini identifikatsiyalash imkonini beradi. Bunda pedagogning bilimi, ko'nikma va malakasiga bolgan ishonch sifati; o'z imkoniyatlari [kuchi]ga bolgan su'bekktiv baxo, ta'lim olish, bilimni oshirish va takomillashtirishga bolgan intilish kabilar muxim axamiyat kasb etad. Pedagogni shaxsini faollashtirish samaradorligi oquv oquv jarayonini tashkillashtirish usullari, vositalari va shakllarini mos ravishda tanlashning didaktik jarayonlari samaradorligiga bogliq boladi. Bu yerda asosiy e'tibor pedagog faoliyatini intensivatsiyalash va faollashtirish texnologiyalariga qaratiladi. O'qituvchi kasbiy faoliyatini faollashtirish texnologiyalariga muxokama metodi, o'yin metodlari rolli o'yinlar, pedagogik va imitasion o'yinlar, o'yinli modellashtirishga qaratiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan o'qitishning faol metodlari pedagogning ijodiy fikrlashini tarbiyalovchi bilishga oid va fikrlash qobiliyatining xisobiga pedagog shaxsi va kasbiy faoliyatini faollashtiradi. Malaka oshirishdagi pedagoglar kasbiy kompetentligini tarbiyalash ishlari shuni ko'rsatadiki, o'qitishni faol metodlari pedagogning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan qiziqishini orttirib, pedagogning bundan keyingi kasbiy faoliyatini takomillashtirish, bilim ko'nikma va malakalarini oshirishga bo'lgan intilishlarini orttirar ekan. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini malaka oshirish jarayonida bosqichma-bosqich tarbiyalash texnologiyalarning asosini quyidagilar tashkil etadi;

Shaxsni ijodiy sifatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari;  
interaktiv texnologiyalar, ijtimoiy-tarbiyaviy texnologiyalar;  
pedagogning ijtimoiy-sub'ektkli faolligini tarbiyalash texnologiyalari;  
pedagogik jarayonlar insonparvarlik - shaxsiy asosga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar;

Pedagogning kasbiy faoliyatini intensivatsiyalash va faollashtirishga asoslangan texnologiyalar;

qisman qidirish metodi;

- interfaol texnologiyalar;

- O'yin texnologiyalari;

- pedagogik, ro'li va imitasion o'yinlar

- O'qitishning individuallashtirilgan texnologiyalari;

- loyixaviy metod;

- ta'limdagi integratsiya texnologiyalari;

- o'qitishning integrativ shakllari;

Ushbu texnologiyalar malaka oshirishdagi pedagoglarning kasbiy kompetentlik mezonlarini o'quv-bilish, amaliy, tadqiqotchilik va evristik faoliyatida, pedagogik o'zaro ta'sirlashuv texnologiyalari bilan uzviy boglangan. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyash darajasi pedagoglarni tarbiyalash jarayonlarining har bir bosqichida xuddi mazmuni singari doimiy



o'zgarib turadi. Bunday jarayonlar natijasida pedagoglardagi mavjud xar bir malaka asta-sekin mukammallashtirilib, tarbiyalanib boradi, uning xajmi va ko'lami ortadi, o'zgaradi, shuningdek kasbiy malakalar reproduktiv faoliyatdan qisman-izlanuvchi, muammoli, izlanuvchilik va ijodiy xamda ijodiy faoliyatga o'zgarib boradi. Bu esa, pedagoglar kasbiy kompetentligini malaka oshirish jarayonida bosqichma-bosqich tarbiyalash texnologiyalarining qanchalik muxim ekanligini ko'rsatadi. Pedagoglar kasbiy kompetentligini tarbiyalashning xar bir bochqichi sifatini yangi xarakterni o'zida namoyon etadi; Pedagoglar kasbiy kompetentligini tarbiyalashning adaptatsion-reproduktiv bosqichida shaxsning sub'ektligiga asosiy e'tibor qaratilib, bunda pedagogning o'z-o'zini faollashtirishi, va o'z-o'zini aniqlash pedagoglar o'quv-bilish faoliyatining barcha turlari va shakllarini bajarish malakalarini tarbiyalaydi. Bunday jarayonlar pedagoglarning o'quv-bilish faoliyatining barcha turlarini tarbiyalaydi. Pedagoglarning kasbiy kompetentligini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayonlarning barchasi malaka oshirish tizimida pedagoglarning o'quv-bilish faoliyatining ajralmas qismi ekanligini isbotlaydi. Malaka oshirishdagi pedagoglar kasbiy kompetentligi mezonlarini tarbiyalash texnologiyalarining aktiv-faoliyatli bosqichida pedagoglardagi mavjud kasbiy faoliyatni mukammallashtirish, kasbiy faoliyatda uchreydigan turli qiyinchiliklarni engish va pedagogik muammolarni xal qilish ko'nikmalarini tarbiyalash sharoitlarini yaratish lozim. Va nixoyat pedagog kasbiy kompetentligi mezonlarini tarbiyalash texnologiyalarining ijodiy-o'zgartiruvchi bosqichida pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini rejalashtirishi va mukammallashtirishi, turli pedagogik muammolarni konstruktiv usullar bilan xal qilish, pedagogik muloqot jarayonini kuchaytirish malakalari shakllantiradi.

Malaka oshirishdagi pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini, faoliyat motivatsiyalarini oshirish uchun xamda pedagoglarning mustaqil qaror qabul qilish xususiyatlarini tarbiyalash uchun xamda pedagogning quyidagi texnologiyalardan foydalanish lozim; jamoaviy va guruxiy o'zaro ta'sirlashuv, mutaxassisning xaqiqiy kasbiy faoliyatining asosiy xususiyatlarini imitasion modellashtirish texnologiyalari, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan vaziyatlar kontekstini xayotiy vaziyatlar kontekstiga o'zgartirish texnologiyalari. Ta'lim jarayonida o'qitishning faol va muammoli metodlarini qo'llash pedagoglarda yangi bilimlarni mustaqil tadqiq qilish imkonini beradi xamda ularda shaxsiy ijodiy qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlarini tarbiyalashda shaxsiy "Portfolio"larini yuritish xam muhim axamyatga ega.

Ta'lim jarayonini dialogizatsiyalash yani pedagogning o'z-o'zi bilan bo'lgan dialogidan malaka oshirish jarayonidagi boshqa sub'ektylar bilan dialog o'rnatish xam pedagogning kasbiy kompetentligi mezonlarini tarbiyalashda muhim shartlardan biri xisoblanadi. Pedagog kasbiy kompetentligini bosqichma bosqich tarbiyalash texnologiyalarida shuningdek, ta'lim jarayoni sub'ektlarining diologik o'zaro ta'sirlashuv



sharoitlarini yaratish yani pedagoglarning o'zaro suxbatlashish, disput, muxokamalarni to'g'ri o'rnatish xam muhimdir. Pedagoglar kasbiy kompotentligi mezonlarini tarbiyalash texnologiyalari bo'yicha yuqorida keltirilgan fikrlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin; pedagogning kasbiy sifatleri ko'rsatkichlari va mezonlarini tarbiyalashda qo'llaniladigan texnologiyalar xar taraflama mukammal ishlab chiqilgan xamda pedagog kasbiy sifatlarini tarbiyalashi, pedagogning kasbiy faoliyatida duch keladigan turli muammolarni qiyinchiliklarsiz xal qilishga o'rgatishi, pedagogning ta'limning ajralmas qismiga aylantirishi xamda bugungi kun zamon talabiga mos "Ijodkor Pedagog", "Novator pedagog", "Maxoratli pedagog" va nixoyat "Ideal pedagog" qiyofasini yaratishda xizmat qilishi lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ali Mamadaliyev, M., & Bobayeva, Z. (2024). O'SMIRLAR YOSHLARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING VAQTINCHALIK VA DAVOMLI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 4(2), 68-72.
2. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). PEDAGOGIK NIZOLAR VA ULARNI SAMARALI HAL ETISH YO 'LLARI. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(27), 94-97.
3. Bobayeva, Z. M. Q. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobilyatlarini rivojlantirish. *Science and Education*, 4(2), 973-977.
4. Мансурова, Г. Р. (2024). ВЛИЯНИЕ ПРОКРАСТИНАЦИИ И ЛЕНИ НА СФЕРУ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ. *JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY*, 7(5), 77-82.
5. Kizi, B. Z. M. (2023). THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF YOUNGER SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE SURROUNDING WORLD. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(06), 186-189.
6. Nurmatjon o'g'li, T. J. (2024). O'SMIR YOSHLAR O'RTASIDAGI GIYOHVANDLIKNI VA ALKOGOLIZIMNI OLDINI OLIISH PROFILAKTIKASI. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 3(26), 271-283.

